

Qabul qilindi: 03.02.2025

Chop etildi: 31.03.2025

UDK:904

O'ZBEKISTONDA BRONZA ASRI QISHLOQ MAQOMIDAGI TURAR JOYLARDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR TARIXI

*Nurmetov Sardor Baxtiyorovich, Urganch davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

HISTORY OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH AT BRONZE AGE VILLAGE SETTLEMENT IN UZBEKISTAN

*Nurmetov Sardor Bakhtiyorovich, independent researcher at Urgench
State University*

ИСТОРИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ПОСЕЛЕНИИ БРОНЗОВОГО ВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ

*Нурметов Сардор Бахтиёрович, независимый научный
исследователь Urgenchского государственного университета*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi bronza asri qishloq maqomidagi turar joylarda arxeologik izlanishlar tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turon, Ustyurt, Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryo, Yesen 1, 2, Qoraquduq, Churuk, Ijond, Vaush.

Аннотация: В статье рассматривается история археологических исследований поселений эпохи бронзы на территории Узбекистана

Ключевые слова: Турон, Устюрт, Чирчик-Охангарон, Фергана, Зарафшан, Кашкадарья, Сурхандарьинская, Нижняя Амударья, Есен 1, 2, Каракудук, Чурук, Иджонд, Вауш.

Abstract: The article covers the history of archaeological research at Bronze Age village settlements in Uzbekistan.

Key words: Turon, Ustyurt, Chirchik-Ohangaron, Fergana, Zarafshan, Kashkadarya, Surkhandarya, Lower Amudarya, Yesen 1, 2, Karakuduk, Churuk, Ijond, Vaush.

KIRISH. O'zbekiston hududining madaniy-xo'jalik regionida joylashgan turar joylarda keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalar muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat vatanimiz hududidagi madaniy-xo'jalik markazlarida istiqomat qilgan va o'troqlashgan aholining bronza davrigacha bo'lgan tarixini o'rganish joiz. O'zbekiston geografik o'rnining boshqa hududlariga qaraganda qulay geografik kenglikda joylashishi strategik ahamiyatga ega. Geografik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hududi tuzilishi tog'lik va tekislik qismlaridan iborat bo'lib, ularning joylashish koordinatalari bir-birini takror qilmaydi. Shu ma'noda geografik muhit, iqlim sharoiti, flora va faunasi, daryolarining joylashishi, tabiiy manbalari jihatdan farqlanish xususiyatlari Chirchiq-Ohanga-

ron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryo kabi tarixiy-geografik hududlarida o'z ma'nosini topgan. P.Baratov xulosasiga ko'ra, biz yashab kelayotgan hudud tuzilishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan tubdan farqlanishi shundaki, hududning 71% tekislikdan iborat bo'lib, odamzot uchun qulay vodiylar, tog' oldi sernam va seunum tekisliklardan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra insoniyatning ilk madaniy izlari Ustyurt, Zarafshon vodiysi shimoli, Toshkent, Farg'ona vodiylari hamda qo'shni hududlari, Qozog'iston janubi, Qirg'iziston, Janubiy Tojikiston va Turkmanistonning muayyan hududlarida o'rganilgan. Masalan, O'zbekistonning shimoliy-g'arbida joylashgan Ustyurtda olib borilgan dala amaliyoti davrida ro'y-



<https://orcid.org/0009-0009-2460-4734>

e-mail:
sardornur.7111@gmail.
com

xatga olingan Yesen 1, 2, Qoraquduq va Churuk manzilgohlarida olib borilgan tekshirish ishlari natijasida (Shoxpaxta havzasida) 5x7m, 10x20m, 50x70 m, 30x150 m, maydonni egallagan madaniy qatlamlardan olingan moddiy ashyolar ashel davri ilk bosqichiga oid bo'lgan[1,-C.65-68].

1950-yildagi Ya.G'.G'ulomov rahbarligida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Mohandaryo va Xo'jayli irmoqlarining suv sathi ko'tarilishi munosabati bilan vujudga kelgan Kichik va Katta tuz konlari atroflarida ko'p sonli aholi tomonidan qoldirilgan manzilgohlarni ro'yxatga olgan. Shulardan madaniy qatlamlari yaxshi saqlanib qolgan Darvozaqir – 1, 2 manzilgohlarini tekshirish ishlarini olib borganlar. Bu yerdan topilgan moddiy ashyolar Oqchadaryo havzasida Jonbos – 4 manzilgohidan olingan moddiy ashyolarga aynan o'xshash bo'lgan. Bunday ashyolar Uchrashi 131 kulbasi madaniy qatlamidan ham olingan[2,-C.266].

Manzilgohlar madaniy qatlamlaridan olingan moddiy ashyolar miloddan avvalgi VII ming yillik oxiri – III ming yilliklarga mansub bo'lgan. Shuningdek, neolit davriga mansub yodgorliklar O'rta Zarafshon hududida topib o'rganilgan. Misol tariqasida O'rta Zarafshon vohasida Qoratepa tog'i etaklari odamlar tomonidan o'zlashtirilganligi aniqlangan. 1986-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi arxeologiya instituti arxeologiya guruhi xodimlari Sangi-Shohi madaniy qatlamlaridan olingan ashyolar ilk neolit davriga mansub bo'lgan [3,-C.13-15]. Shu bilan birga, Sazag'on-II, Jangal, Tepako'l-3,4,5, Lolab, Qorakamar, Onnakamar, Kichik Quruqsoy-1, Qorakamar-II, Ochilgor manzilgohlarida tekshirish ishlari natijasida olingan ashyolar neolit davriga mansub bo'lgan[4,-C.41-70].

V.M.Massonning Kopetdog' etaklarida Joytun, S.A.Yershovning Chopondepe, O.K.Berdiyevning Bami, Togoloktepa manzilgohlarida qazishma ishlari natijasida Qoraqum tepaligiga qurilgan manzilgohlarda paxsa va guvaladan tiklangan, kvadrat tipga ega bo'lgan 30ta uylar topib o'rganilgan[5,-C.13-22].

MUHOKAMA. Eneolit davri (miloddan avvalgi 3-ming yillik ikkinchi yarmi) arxeologik izlanishlar natijalariga qaraganda mazkur tarixiy davrda O'zbekiston madaniy tiplari geografik holatini namoyon qilgan turar joylarda madaniy qatlamlardan olingan manbalar ko'zga tashlanmaydi. Neolit davri urug' jamoalari

moslashgan geografik hududda istiqomat qilib etnik jarayonlarni olib borganlar. Bunga geografik sharoit va iqtisodiy omillar imkon bergan. O'zbekistonning Quyi Amudaryo qismi Sulton Uvays tog'i shimoli-g'arbiy hududida Qamishli-1, 2, Sariqamish bo'yi havzasi Amudaryoning Davdon irmog'i quyi havzasining janubiy-g'arbiy hududiga ulanib ketgan Uzboy hududi (Bola – Eshim, Togolok) manzilgohlari madaniy qatlamlaridan neolit davriga oid manbalar olingan[6,-C.258-259].

O'rta Osiyo mintaqasining Janubiy Turkmaniston Qopetdog' oldi etaklarida, Tajan daryosi havzasi atrofi hamda Zarafshon vodiysi shimolida Sarazm qishlog'i hududida istiqomat qilgan aholi enolit davrida paxsa va to'g'ri burchakli xom g'ishtli turar joylarda amaliy kasb-korlarini olib borganlar. Masalan, B.A.Kufitin Anov yodgorligida qazishma ishlari natijasida eneolit davriga oid ashyolarni olishga muyassar bo'lgan [7,-C.22-29]. B.A.Litvinskiy Namozgohtepada qazishma ishlarini olib borib ilk, o'rta va so'nggi bosqichlarni tarixiy yoritadigan manbalar olgan[8]. Eneolit davrida Namozgohtepa (70 ga.), Oltin (25 ga.), Geoksur – 1 yodgorliklaridan shahar tipini aks ettirgan manbalar olingan [9,- C.100]. Tojikiston Respublikasi Sarazm qishlog'ida eneolit va ilk bronza davriga mansub bo'lgan Sarazm qishlog'ida (100 ga.) o'troq aholi turar joylarida olib borgan amaliy mashg'ulotlarini aks ettirgan manbalar topib o'rganilgan[10,-P.1-12].

NATIJALAR. Bronza davri aholi turar joylarida arxeologik izlanishlar XX asr 50-yillarida O'zbekiston madaniy-xo'jaliklarida boshlangan. Masalan XX asr 50-yillaridan boshlab Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari To'rtko'l-Beruniy tumanlari hududida olib borilgan arxeologik yodgorliklarni aniqlash maqsadida qidiruv ishlari natijasida ro'yxatga olingan manzilgohlarda tekshirish ishlarini olib borib eneolit davri aholisining bronza davrida xo'jalikda olib borgan tarixi qanday kechganligini o'rganish munosabati bilan tekshirish ishlarini olib borib kutilgan natijalarni olishga erishgan[11,-C.191-192]. Zarafshon vodiysi quyi havzalarida va tog'li hududlarida eneolit davri aholisi olib borgan xo'jalik an'analari Zamonbobo hamda tog'lar sharoitida o'rnatilgan aholi manzilgohi Mo'minobodda tekshirish ishlari natijasida bronza jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik munosabatlarni o'rganish imkonini bergan manbalar olingan [12,-C.171-179]. XX asrning 50-yillarining o'rtalarida

Yu.A.Zadneprovskiy Markaziy Fargʻonada dala amaliyoti davrida roʻyxatga olgan manzilgohda qazishma ishlarini olib borishi natijasida uy xonalaridan olingan ashyolar miloddan avvalgi II ming yillik soʻnggi choragida mansub boʻlgan [13,-C.328]. 2003-yilda B.X. Matboboyev va G.P.Ivanov Chust yodgorligida arxeologik tekshirish ishlarini olib borishi natijasida soʻnggi bronza davrida aholi madaniy-xoʻjalik manzilgohlari toʻrt tomoni mudofaa (paxsa) devor bilan oʻrab olinganligi aniqlangan[14,-C.101-108].

A. Asqarovning Surxondaro shimoliy-gʻarbiy hududida, Sherobod tumani Muzrabod dashtida Sopollitepa yodgorligini tekshirish ishlarini olib borishi munosabati bilan toʻrt tomoni toʻgʻri burchak shaklida uch qatorli mudofaa devori bilan oʻrab olingan miloddan avvalgi II ming yillik 1-choragida bunyod qilinganligini isbot qiladigan manbalarni olgan[15]. Bronza davri soʻnggi bosqichi jamiyatini qamrab olgan urbanizatsiyaning natijalari Jarqoʻton yodgorligida aks etgan[16,-B.68-72]. Toshkent vodiysi geografik joylashish xususiyatini hosil qilgan Ohangaron va Chirchiq madaniy-xoʻjalik hududlarida neolit davri urugʻ jamoalari turar joylari anʼanalari bronza davri soʻnggi bosqichlarida davom etgan [17,-C145-150]. Janubiy Turkmaniston Kopetdogʻ etaklarida devorlari mudofaa elementlari bilan oʻrab olingan Namozgohtepa (70 ga.), Oltindepe (25ga.) yirik aholi manzilgohlari faoliyat olib borgan[18,-C.98-100].

XULOSA. Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan mulohazalardan quyidagi yakuniy xulosalarni qayd qilish mumkin:

- Tosh asridan boshlab ovchi-termachilar, tabiiy gʻorlar, ochiq manzilgohlar, yer sathi, yarim yertoʻla, turar joylarda istiqomat qilib bosqichma-bosqich qoʻshni hududlarni oʻzlashtirishi arxeologik izlanishlar munosabati bilan oydinlashtirildi.

- Miloddan avvalgi II ming yillik 2-yarmi soʻnggi choragida oʻtroqlashgan aholi vakillari tomonidan barpo qilingan manzilgohlar konstruktiv tuzilishi yarim yertoʻla shaklida boʻlgan boʻlsa (Xorazm vohasi, Quyi Zarafshon, Qizilqum), binokorlik bilimlari asosida qurilgan yodgorliklar (Fargʻona va Surxondaryo viloyati) madaniy-xoʻjalik markazlari boʻlgan.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте //

Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – Нукус.: 1983. Вып-1.

2. Гулямов Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана. –Ташкент. Фан, 1966.
3. Худойбердиев Р.А. Агалик-Новая стоянка каменного века // Узбекистан древности и средневековье. – Самарканд, 1992.
4. Джуракулов М.Ж., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. – Ташкент, Фан, 1991.
5. Ершов С.А. Холм Чопандепе // Тр института истории, археологии и этнографии АН Туркм. ССР. – Ашхабад, 1956. – Т. II.
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ РАН. Наука. 1962.
7. Куфитин Б.А // Работы ЮТАКЭ в 1952 г по изучению“ Культуры Анау”//Известия АН Туркменской ССР, серия общественных наук. – Ашхабад. 1954. № 1.
8. Литвинский Б.А. Намазгахтепе (по данным раскопок 1949-1950 гг.// СЭ. – М.: Наука. 1954. № 4.
9. Массон В.М. Энеолит Средней Азии // Археология СССР. – М.: Наука, 1982.
10. Isakov A. Sarazm: an agricultural centre of ancient Sogdiana // Bulletin of the Asia institute. 1996. –Vol 8.
11. Толстов С.П. Итоги работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1935 г // В-М, – М.: 1955. - №3.
12. Гулямов Я.Г., Исламов У.И., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент.: Наука, 1966.
13. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М.-Л. Наука, 1962. №.118.
14. Матбобоев Б.Х., Иванов Г.П. Новое о типах жилищ на поселениях Чустской культуры в связи с раскопками Дальверзина // Археологические исследования в Узбекистане 2003 г. – Ташкент, Фан. 2004. Вып. 4.
15. Аскарлов А. Сапаллитепе – Ташкент, Фан, 1973.
16. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent. 2011.
17. Обилдиева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области // КСИИМК. – М.: Наука, 1955. Вып 59.
18. Массон В.М. Алтын-Депе // ТрЮТАКЭ. – Л.: Наука, 1981. Т.XVIII.